

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSC.03/30.12.2019.FIL.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

TURDIYEVA YULDUZ ZAYNIDDIN QIZI

**LUQMON BO‘RIXONNING “JAZIRAMADAGI ODAMLAR” ROMANIDA
BADIY USLUB INDIVIDUALLIGI**

10.00.02- O‘zbek adabiyoti

(XX asr o‘zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon)

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falasafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) in
Philology Sciences**

Turdiyeva Yulduz Zayniddin qizi

Luqmon Bo‘rixonning “Jaziramadagi odamlar” romanida badiiy uslub
Individualligi.....3

Турдиева Юлдуз Зайниддин кизи

Индивидуальность художественного стиля в романе Лукмана Борихана
люди в жару.....24

Turdieva Yulduz Zayniddin qizi

Individuality of artistic style in Luqman Borikhan’s novel “People in the
Heat”.....47

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works.....52

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSC.03/30.12.2019.FIL.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

TURDIYEVA YULDUZ ZAYNIDDIN QIZI

**LUQMON BO‘RIXONNING “JAZIRAMADAGI ODAMLAR” ROMANIDA
BADIY USLUB INDIVIDUALLIGI**

10.00.02- O‘zbek adabiyoti

(XX asr o‘zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon)

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B.2022.2.PhD/Fil2436 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsuull.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Jabborov Nurboy Abdulhakimovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Miliyev Suvonqul
filologiya fanlari doktori, professor

Rasulova Umida Yo‘ldosh qizi
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi DSc. 03/30.12.2019.Fil.19.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “___” _____ soat ___ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, (www.tsuull.uz); e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz)

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103.Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, (www.tsuull.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “___” _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil “___” _____ dagi ___ raqamli reestr bayonnomasi)

H.A. Dadaboyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, filol.f.d., professor

Q.U. Pardayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filol.f.d., professor

B.N. Karimov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi o‘rinbosari, filol.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida epik turga oid asarlarda individual badiiy uslubning oʻrni, uning nasriy asar arxitektonikasini shakllantirish hamda muallif ijodiy niyatining voqelanishidagi poetik vazifasi yuzasidan ilmiy qarashlar bildirilib kelmoqda. Badiiy uslub oʻziga xosligini taʼminlashda adib ijodiy tajribasi va hayotiy materialni saralash salohiyatining hamda inson surati va siyrati, dunyoqarashi va ruhiyati tasviriga yondashuv mezonlarining ahamiyatiga doir ilmiy izlanishlar qilinmoqda. Bunda asarning qay toifadagi auditoriyaga moʻljallangani, hayotning oʻzgarlar nazaridan chetda qolib kelayotgan jihatlari qalamga olinishi hamda ijodkor mahorati alohida oʻrin tutadi.

Dunyo adabiyotshunosligida yozuvchi individual uslubi shakllanishi va takomilining estetik omillari, u ijod qilayotgan davr ijtimoiy-siyosiy va adabiy-madaniy hayotining yozuvchi tafakkuri va tuygʻulariga, oʻz navbatida, ijodkor badiiy konsepsiyasining jamiyat maʼnaviyatiga taʼsiri masalalariga u yoki bu darajada munosabat bildirilmoqda. Bu jarayonda yozuvchi mansub oila muhiti va adabiy davraning oʻrni borasida ham nazariy qarashlar ilgari surilmoqda.

Oʻzbek adabiyotshunosligida badiiy uslubning epik tasvir poetikasini taʼminlashdagi estetik funksiyasi, yozuvchi ijodiy tafakkuri va ijtimoiy voqelikning uslub takomiliga taʼsiri, uslubning murakkab assotsiatsiyalar bilan bogʻliqligi, badiiy asar tili va uslubining oʻzaro aloqadorligi kabi masalalar boʻyicha ahamiyatli nazariy fikrlar va ilmiy tahlillar amalga oshirilgan. Lekin yondosh ilmiy muammolarga qaraganda, badiiy uslub nisbatan kam oʻrganilgan mavzu boʻlib qolayotir. Holbuki, yozuvchi ijodiy niyatidan estetik idealigacha, asar syujeti va kompozitsiyasidan qahramonlar xarakteri va ruhiy olamigacha, muallif konsepsiyasi ifodasi va badiiy tasvir vositalarigacha uslub orqali namoyon boʻladi. Modomiki, "...oʻzbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda oʻrganish, bugungi kunda dunyo adabiy makonida yuz berayotgan eng muhim jarayonlar bilan uzviy bogʻliq holda tahlil etib, zarur ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish, kelgusi vazifalarimizni belgilab olish katta ahamiyatga ega"¹ ekan, adabiyotshunoslikning asosiy ilmiy muammolaridan sanalgan badiiy uslub va uning ijodiy tafakkur takomilidagi oʻrnini adabiy merosi nisbatan kam oʻrganilgan Luqmon Boʻrixon asarlari misolida baholash ilmiy zaruriyatdir. Adib ijodida alohida oʻringa ega "Jaziramadagi odamlar" romani hanuz ilmiy bahosini olgan emas. Mazkur asarning badiiy uslub kesimida tadqiq qilinishi dissertatsiya mavzusining dolzarb ekani isbotidir.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish toʻgʻrisida", 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son "Oʻzbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi Farmonlari, 2017-yil 12-yanvardagi PQ-1271 "Kitob mahsulotlarini

¹ Мирзиёев Ш.М. Адабиёт, санъат ва маданият яшаса, миллат ва халқ, бутун инсоният безавол яшайди. www.xabar.uz. 2018 йил 7 август.

chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida", 2017-yil 28-iyuldagi PQ-3160-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida", 2019-yil 17-iyundagi PQ-4358-son "2019-2023-yillarda Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo'lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 23-sentyabr kuni O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi "Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir" va BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasida so'zlangan nutqlaridagi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining 2021-2025-yillarga mo'ljallangan "O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini o'rganishning konseptual muammolari" mavzusi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Adabiyotshunoslikda uslub masalalari, xususan, badiiy uslub muammosi bo'yicha e'tiborga molik tadqiqotlar yaratilgan. Badiiy uslubning nazariy masalalari, epik asar syujeti va kompozitsiyasida, estetik tafakkur rivojida tutgan o'rni xorijlik adabiyotshunoslar² va o'zbek olimlari³ tomonidan muayyan darajada o'rganilgan. Ushbu tadqiqotlar badiiy nasr uslubi turli rakurslarda tahlil etilgani, epik asar takomilida, badiiyatni yuksaltirishda uslubning ahamiyati yuzasidan muhim nazariy umumlashmalar

² Бахтин М. Эстетика словесного творчества – М.: Искусство, 1986; Боров Ю. Искусство интерпретации и оценки – М.: Советский писатель, 1981; Храпченко М. Творческая индивидуальность писателя развитие литературы – М.: Советский писатель, 1972; Чернец Л. Литературные жанры – М.: Издательство Московского университета, 1982; Кузьмин А. Повесть как жанр литературы – М.: Знание, 1984; Поспелов Г. Теория литературы – М.: Высшая школа, 1978; Хализев В. Теория литературы – М.: Высшая школа, 1999.

³ Султон И. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1986. – Б. 408; Қўшжонов М. Ўзбек романчилигининг ривожланиш босқичлари ва жанр хусусиятлари. Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. Биринчи жилд. – Тошкент: Фан, 1991; Шарафиддинов О. Хаёт билан ҳамнафас. – Тошкент: Ёш гвардия, 1983; Мирвалиев С. Ўзбек романи. – Тошкент: Фан, 1969; Норматов У. Насримиз тамойиллари. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1978; шу муаллиф. Умидбахш тамойиллар. – Тошкент: Маънавият, 2000; Мирзаев И. Ўзбек адабиётида жанрлар типологияси ва услубий ранг-баранглиги. – Тошкент: Фан, 1983; Умутов Х. Бадий ижод асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001; Саримсоқов Б. Бадийлик асослари ва мезонлари. – Тошкент: Bookman print, 2022; Расулов А. Бадийлик – безавол янгилик. – Тошкент: Шарқ, 2007; Солижонов Ё. Нутқ ва услуб. – Тошкент: Чўлпон, 2002; Болтабоев Х. Наср ва услуб. – Тошкент: Фан, 1992; Носиров Ў. Образларда услуб жилolari. Тошкент: Фан, 1991; Пардаева З. Ҳозирги ўзбек романларининг тараққиёт тамойиллари. Филол. фан. д-ри. дисс. ...автореф. – Тошкент, 2003; Жабборов Н. "Ўткан кунлар"да миллий рух ифодаси //Филология масалалари, 2020, 2-сон. – Б. 3-16; шу муаллиф. Erkin A'zamning ijod tutumi //Yoshlik. – Тошкент, 2020, 7-8-қо'shma son. – В. 28-31; Жўрақулов У. Худудсиз жилва. – Тошкент: Фан, 2006; шу муаллиф. Назарий поэтика масалалари: Муаллиф. Жанр. Хронотоп. – Тошкент: Фафур Гулом нашриёти НМИУ, 2015; Тўраев Д. Давр ва ижод масъулияти. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2004; Қуроноф Д. Чўлпон насри поэтикаси. – Тошкент: Шарқ, 2004; Дониёрова Ш. Истиклол даври ўзбек романларида миллий рух ва қахрамон муаммоси. Филол. фан. д-ри. дисс. ...автореф. – Тошкент, 2012; Ёқубов И. Мустақиллик даври романлари поэтикаси. Филол. фан. д-ри. дисс. ...автореф. – Тошкент, 2018.

chiqarilgani jihatidan qimmatlidir. Mazkur ilmiy ishlar badiiy uslubning janr, obraz va yozuvchi ijod konsepsiyasini ifodalashdagi o‘rni bilan bog‘liq xususiyatlari tadqiq qilingani jihatidan ahamiyatlidir.

Luqmon Bo‘rixon hikoyalari, qissalari va romanlari yuzasidan ham ilmiy izlanishlar olib borilgan⁴. Ularda uslub va muallif ijodiy niyati, uslub va estetik ideal, uslub va ijodkor dunyoqarashi masalalari tadqiq qilingan. Uslub haqidagi mavjud ilmiy to‘xtamlar boyitilgan. Adib asarlari bo‘yicha alohida dissertatsion tadqiqot ham amalga oshirilgan⁵. Bundan tashqari, ayrim dissertatsiyalarda tanlangan ilmiy muammodan kelib chiqib, adib asarlari ham tahlilga tortilgan⁶.

Ta‘kidlash kerakki, asarlarining badiiyati baland bo‘lishiga qaramay, o‘zi bilan tengdosh nosirlar orasida Luqmon Bo‘rixon asarlari nisbatan kam o‘rganilgan. Ushbu dissertatsiya adib asarlarida badiiy uslub individualligi masalasi monografik asosda tahlil etilayotgani bilan yuqoridagi tadqiqotlardan farq qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq ravishda bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Estetik tafakkur takomilida badiiy uslubning o‘rni masalasini Luqmon Bo‘rixonning “Jaziramadagi odamlar” romani misolida epik tasvir qonuniyatlari, qahramonlar portreti, xarakteri va ruhiyati tasviridan kelib chiqib ilmiy asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

“Jaziramadagi odamlar” asari misolida badiiy uslub va romanii tafakkur munosabatlarini tekshirish;

epik tasvir yaratishda badiiy uslubning estetik vazifasiga xos qonuniyatlarni yoritish, badiiy uslubning qahramonlar portreti va xarakterini yaratishdagi o‘rnini baholash;

personajlar ruhiyati tasvirida obraz va badiiy uslub uyg‘unligining ahamiyatini dalillash, epik asar uslubning badiiy tasvir vositalarini qo‘llashdagi poetik funksiyalarini aniqlash;

“Jaziramadagi odamlar” romani badiiy uslubi misolida Luqmon Bo‘rixon ijodining o‘zbek nasri takomilidagi o‘rniga doir umumlashmalar chiqarish.

Tadqiqot obyekti sifatida yozuvchi Luqmon Bo‘rixonning “Jaziramadagi odamlar” romani olindi.

⁴ Mahmudov Y. Hikoya badiiyati: Luqmon Bo‘rixon hikoyalari misolida. – Toshkent: Turon ziyo, 2017; Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. – Тошкент: Yangi asr avlodi, 2006; Норматов У. Умидбахш тамойиллар. – Тошкент: Маънавият, 2000; Каримов Х. Ўзбек романларининг тараккиёт тамойиллари. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2008; Ёкубов И. Мустақиллик даври ўзбек романлари поэтикаси. – Тошкент, 2021; Шукурова Б. Луқмон Бўрихон хикояларида эстетик идеалнинг намоён бўлиши//Адабиётшуносликнинг долзарб муаммолари, 2022. 28 февраль. – Б. 137-140; Алимова З. Луқмон Бўрихон ижоди ҳақида айрим мулоҳазалар //Адабиётшуносликнинг долзарб муаммолари 2022. 28 февраль.

⁵ Sadullayeva M. Luqmon Bo‘rixonning qissa va hikoyalari badiiy mahorat masalasi: Fil.fan. b. dok. diss. – Urganch, 2023. – B. 142.

⁶ Тулибаев Х. Ҳозирги ўзбек романчилигида бадий услуб ва жанрий-композицион яхлитлик синтези: Фил. фан б. док. дисс. – Фарғона, 2018. – Б. 148.

Tadqiqot predmetini “Jaziramadagi odamlar” asarida badiiy uslub va romaniy tafakkur uygʻunligi, uslubning epik tasvir, qahramonlar portreti va xarakteri, personajlar ruhiyati va badiiy tasvir vositalarini qoʻllashdagi oʻrni masalalari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada tarixiy-qiyosiy, sotsiologik, germenevtik, biografik metod hamda analitik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

badiiy uslub va romaniy tafakkur mutanosibligi masalasi individual asar tili, qahramon ruhiyatidagi evrilish, epik koʻlam va xarakter tasviri, kinoya va kulgu poetik unsurlari misolida ochiqqlangan;

“Jaziramadagi odamlar” romani xususiyatlaridan kelib chiqib, ramziylik, madaniy rezonans, mahalliy va hududiy kolorit, ayollar portreti tasvirida interyerdan foydalanish, dialektizmni qoʻllash, ekspozitsiyaning badiiy ahamiyati masalalari negizida epik tasvirda badiiy uslubning oʻrni aniqlangan;

epik asar badiiy uslubini belgilashda portret va tasviriy sanʼat sinkretizmi, xarakterlash va poetik ifoda uygʻunligi, portret yaratishda muallifning tasvir obyektiga munosabati nazariy-estetik asosda yoritilgan;

badiiy xarakterga yondashuvning qadimgi davr adabiyotiga xos mezonlariga tayanilib, Luqmon Boʻrixonning personajlar xarakterini yaratishdagi individual uslubi, umumlashtirib tasvirlash usulida dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

“Jaziramadagi odamlar” asari tahlili asosida badiiy uslubning epik tasvir va qahramonlar ruhiyati munosabatini belgilashdagi oʻrni asoslangan;

roman tahlili asosida adibning ramziylik, madaniy rezonans, mahalliy va hududiy kolorit, ayollar portreti tasvirida interyerdan foydalanish mahorati baholangan;

epik asar badiiy uslubidan kelib chiqib, yozuvchining dialektizmlarni qoʻllash mahorati, ekspozitsiyaning badiiy ahamiyati kabi masalalar yoritilgan;

badiiy uslubni belgilashda portret va tasviriy sanʼat sinkretizmi, xarakterlash va poetik ifoda uygʻunligi, portret yaratishda muallifning tasvir obyektiga munosabati aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qoʻllanilgan yondashuv usullari va nazariy maʼlumotlarni berishda aniq ilmiy manbalarga tayanilgani, tahlilga tortilgan materiallarning ilmiy metodlar vositasida asoslanganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi, adabiyotshunoslikning zamonaviy ilmiy konsepsiyalari asosida oʻrganilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Luqmon Boʻrixonning “Jaziramadagi odamlar” romani tahlili asosida badiiy uslubning yozuvchi estetik idealini ifodalash va epik tasvir yaratishdagi oʻrni, asar qahramonlarining ichki va tashqi qiyofasi, xarakteri va ruhiyati talqinidagi estetik vazifasi, uslub va badiiy tasvir vositalarining oʻzaro munosabati masalalari yoritilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Hozirgi o‘zbek adabiyoti, xususan, epik asarlarga doir tadqiqotlar uchun material bera olishi, oliy o‘quv yurtlarining filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) ta’lim yo‘nalishida Adabiyotshunoslik (o‘zbek adabiyoti) magistratura mutaxassisligida “Yangi o‘zbek adabiyoti muammolari” fanlaridan ma’ruzalar o‘qishda va amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazishda, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar yaratishda manba bo‘lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Luqmon Bo‘rixonning “Jaziramadagi odamlar” romanida badiiy uslub individualligi muammosi tadqiqi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

epik asar badiiy uslubini belgilashda portret va tasviriy san’at sinkretizmi, xarakterlash va poetik ifoda uyg‘unligi, portret yaratishda muallifning tasvir obyektiga munosabati bilan bog‘liq ilmiy xulosalardan Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2021 – 2023-yillarda bajarilgan “PF-201912258 raqamli “O‘zbek adabiyotining ko‘p tilli (o‘zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” nomli amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 8-noyabrdagi 14-3197-son ma’lumotnomasi). Natijada qahramonlar portretini yaratishdagi yozuvchining o‘ziga xos uslubi, asar tilini individual qilishga xizmat qilgan shevaga xos so‘zlardan mahorat bilan foydalanishi, shuningdek, epik tasvirni yaratishda badiiy uslubning ahamiyatiga oid ilmiy xulosalar elektron platforma materiallarini boyitishga xizmat qilgan;

badiiy xarakterga yondashuvning qadimgi davr adabiyotiga xos mezonlariga tayanilib, Luqmon Bo‘rixonning personajlar xarakterini yaratishdagi individual uslubi va umumlashtirib tasvirlash metodiga doir ilmiy xulosalardan Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2021 – 2023-yillarda bajarilgan “PF-201912258 raqamli “O‘zbek adabiyotining ko‘p tilli (o‘zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” nomli amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 8-noyabrdagi 14-3197-son ma’lumotnomasi). Natijada xarakter yaratishda an’anaviy qoliplardan tubdan farq qilgan mezonlar, xarakter tasvirida badiiy tasvir vositalarining o‘rni, shuningdek, portret tasviri va xarakter ifodasidagi uyg‘unlik ahamiyatiga doir ilmiy materiallar tayyorlashga asos bo‘lgan;

badiiy uslub va romaniy tafakkur mutanosibliigi masalasi individual asar tili, qahramon ruhiyatidagi evrilish, epik ko‘lam va xarakter tasviri, kinoya va kulgu poetik unsurlari misolida ochiqqlanganiga oid ilmiy xulosalardan Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2022 – 2023-yillarda bajarilgan “IL-52 tur-21091433 raqamli “O‘zbek milliy madaniyatiga xos atamalarga oid maqolalar bazasini yaratish (Vikipediya elektron ensiklopediyasi mezonlari asosida)” nomli amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 8-noyabrdagi 14-3200-son ma’lumotnomasi). Natijada epik tasvirni yaratishda individual uslub ahamiyati, qahramonlar ruhiyati va peyjaz tasvir vositasining o‘zaro bog‘liqligi va undan

mahorat bilan foydalanish, asar g'oyasini ifodalashda kinoyaning o'rniga doir materiallar bilan boyitishga xizmat qilgan;

“Jaziramadagi odamlar” romani xususiyatlaridan kelib chiqib, ramziylik, madaniy rezonans, mahalliy va hududiy kolorit, ayollar portreti tasvirida interyerdan foydalanish, dialektizmni qo'llash, ekspozitsiyaning badiiy ahamiyati masalalari negizida epik tasvirda badiiy uslubning o'rni aniqlangani bilan bog'liq ilmiy xulosalardan Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2022 – 2023-yillarda bajarilgan “IL-52 tur-21091433 raqamli “O'zbek milliy madaniyatiga xos atamalarga oid maqolalar bazasini yaratish” (Vikipediya elektron ensiklopediyasi rnezonlari asosida)” nomli amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 8-noyabrdagi 14-3200-son ma'lumotnomasi). Natijada poetik tasvir yaratishda milliy koloritdan unumli foydalanish, zamon va makon mutanosibligini ta'minlash, ekspozitsiyani o'rinli qo'llashga doir ilmiy materiallar tayyorlashga asos bo'lgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro, 3 ta respublika ilmiy-nazariy anjumanlarida aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 16 ta ilmiy maqola chop etilgan, jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta, shu jumladan, 4ta respublika va xorijiy jurnallarda 4 ta maqola nashr etilgan.

Dissertatsiya hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Tadqiqotning hajmi 123 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati izohlangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, shuningdek, obykti, predmeti ham ko'rsatib berilgan, fan va texnologiyalar rivojining ustuvor yo'nalishlariga mosligi asoslangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari tavsiflangan, shuningdek, tadqiqotning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati ochiqdangan va amaliyotga joriy etilishi, tadqiqot bo'yicha e'lon qilingan ishlar va tadqiqot tuzilishi ko'rsatib o'tilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Epik asar yaratishda badiiy uslubning individualligi”** deb nomlanib, 1.1 paragrafdan **“Badiiy uslub va romaniy tafakkur”** muammosi tadqiq qilingan. Badiiy uslubning kelib chiqishi tarixi Gomer va Gesiod epik she'riyatga asos solgan qadimgi yunon adabiyotiga borib taqaladi. Bu davrda turli poetik uslublar, jumladan, epik she'riyatning yuksak tili va lirik she'ning ko'proq so'zlashuv ohangi o'rtasidagi farq paydo bo'la boshladi. Sitseronning ritorik tamoyillari proza yozuviga ta'sir qilib, notiqlik va ishonarli tilga urg'u berdi. O'rta asrlar adabiy uslubida esa diniy va ritsarlik mavzulari ustunlik qildi. Dantening “Ilohiy komediya”sidan ayonki, adabiy uslub ko'pincha bezakli til va allegorik hikoyalar bilan ajralib turardi. Petrarka va Shekspir ifodaning yangi shakllarini kashf etdi, individual uslub tushunchasi qaror topdi. Ma'rifatparvar mutafakkirlar tilda

ravshanlik va ratsionallikni ta'kidlaganlar. Volter kabi faylasuflar va Jonatan Svift kabi yozuvchilar g'oyalarni yetkazish uchun satira va zukkolikdan foydalangan, bu esa to'g'idan-to'g'ri adabiy uslubning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatdi.

Romantik davr adabiyotga ko'proq emotsional va individual yondashuvni o'z ichiga oldi. Vordsvort va Kolerij ma'rifatning ratsionalligidan ajralib turadigan uslubni shakllantirdi. XIX asrga kelib adabiyotda realizm va naturalizm kuchaydi. Flaubert va Zola kabi yozuvchilar hayotni qanday bo'lsa, shunday tasvirlashga e'tibor qaratdi va haqiqatni aks ettirishga intildi. Rus adabiyotida badiiy uslub haqidagi mulohazalar E.Sidorov, A.Sokolov, V.Gusev va Xrapchenkolarning turfa qarashlarni o'z ichiga oladi. Xrapchenko fikricha: "Men"ni qayta-qayta takrorlash hech qanday ijodiy individuallik belgisi emas. Bu belgini katta she'riy mazmunning og'zaki nafisligi va o'z-o'zidan ahamiyatsiz bo'lgan hikoyaning o'ylab topilgan "harakatlari" va dunyoni idrok etishning amorf-shaxssizligini ko'p narsalarni yashiradigan og'zaki nafosat deb bo'lmaydi, bu haqiqiy ijodiy individuallikni emas, balki xayoliylikni tavsiflaydi. Yozuvchining ijodiy individualligi, eng avvalo, hayot hodisalariga qarashi, ijodiy umumlashmalarining o'ziga xosligi va ijtimoiy ahamiyatida namoyon bo'ladi. A.P.Chexov to'g'ri ta'kidlagan: "Muallifning o'ziga xosligi nafaqat uslubda, balki fikrlash tarzida, e'tiqodida hamdir"⁷.

O'zbek adabiyotshunoslarining uslubga oid izchil nazariy fikrlari yoxud mulohazalari Fitratning "Adabiyot qoidalari" asaridan boshlangan. Fitrat uslubning mahorat darajasi, imkoniyati yozuvchining, asarning muvaffaqiyatini ta'minlashda asosiy o'rin tutishini ta'kidlaydi. Har bir shaxsning takrorlanmas DNKsi kabi uslub ham alohidalik kasb etib, muallifning har bir ijod mahsulida o'z izini qoldiradi. Yana bir e'tiborli jihati, ijodkor o'sgani sari uslub ham rivojlanib borishi "Adabiyot qoidalari"da keltirib o'tiladi. Demak, badiiy uslub yozuvchi bilan birga o'sishda va izlanishda bo'ladi. Darhaqiqat, yozuvchilarning ilk hikoya yoxud romanlari bilan yetuklik davridagi asarlari solishtirilsa, muallifning asardan-asarga yuksalib borgani kuzatiladi. "Mabodo avtor o'z uslubiga ega bo'lmasa, uning yozuvchiligi to'g'risida gap bo'lishi ham mumkin emas. Agar uning o'z tili, uslubi shakllangan bo'lsagina yozuvchiligiga umid bog'lash mumkin. Shundan keyingina bu ijodkor yaratgan asarlarning boshqa tomonlari to'grisida fikr yuritish mumkin bo'ladi"⁸. Muallif ifodalamoqchi bo'lgan tasvir, yoritmoqchi bo'lgan g'oya bir xil bo'lishi mumkin, lekin uni qay tarzda va qay holatda o'quvchiga taqdim etish, yetkazib berish bu ijod mahsulining "egasi"ga havola. Bu holat, ayniqsa, adabiyotshunos olim Fitratning "Adabiyot qoidalari" kitobida misollar bilan tavsif etilgan. Uslub masalasida Abdurauf Fitratdan so'ng Izzat Sulton, O'rol Nosirov, Hamidulla Boltaboyev va Yo'ldosh Solijonov kabi adabiyotshunoslar ilmiy izlanishlar olib borgan. Ular uslubga xos asosiy jihatlarni muallif uslubi va asar uslubi misolida tahlil etgan.

Uslubga xos eng asosiy belgilardan biri bu – uning ijodkor ichki dunyosi tarjimoni ekanidir. Adabiyotda ijodkor va uning ijodiga xos bir umumiy qarash bor, ya'ni yozuvchi yoxud shoir o'zi guvohi bo'lgan manzarani qalb, tuyg'ular sintezidan

⁷ Храпченко М. Б. Творческая индивидуальность писателя и развитие литературы. – М.: Советский писатель. 1975. – Б. 68.

⁸ Болтабоев Х. Наср ва услуб. – Тошкент: Фан, 1992. – Б. 8.

o'tkazib, dunyoqarashi va xarakteri tahliliga tortib, ma'lum bir sayqallashlardan keyingina oq qog'ozga ko'chiradi va kitobxonga taqdim etadi. Ayni jarayonning mahsuli sifatida esa turfa xarakterga ega qahramonlar, turli ruhiyatni jonlantirgan obrazlar yuzaga keladi. Shu boisdan ham uslub individuallik, originallik kasb etadi. Bir janrga, bir turga oid asarlar solishitirilganda, ularga xos o'xshashlik kuzatilsada, aynanlikka duch kelinmaydi. O'rol Nosirov "Obrazlarda uslub jilolari" kitobida bu borada keng mulohazalar olib borar ekan, Oybek ijodi, asarlari, undagi Oybekning ba'zi fazilatlarini, qarashlarini o'zida mujassam etgan qahramonlar (Navoiy, Yo'lchi) misolida yuqoridagi fikrlarning haqiqat ekanligini isbotlab beradi.

Uslub turli davrlarda turlicha talqin etilgan. Asosiysi, badiiy asar uslubi va muallif uslubi, davr uslubi va milliy uslubni farqlash zarur. H.Boltaboyev davr uslubi, ya'ni zamonaviy uslubning adabiyotdagi ma'lum bir ko'zga ko'ringan davrga nisbatan tor doirada qo'llanilishini, milliy uslub esa badiiy uslubning shakllanishi va rivojlanishida alohida ahamiyatga ega ekanini ajratib ko'rsatadi.

Tabiiyki, muayyan asar kontekstida o'rganilar ekan, uslub haqidagi nazariy qarashlar yangilanib, boyib boradi. Adabiy hayotda voqea bo'lgan asarlar uslub haqidagi mavjud tushunchalarni to'ldirishga, kengaytirishga xizmat qiladi.

1.2 paragraf "*Epik tasvir yaratishda badiiy uslubning o'rni*" deb nomlanib, unda badiiy uslubning individuallashuvi masalasi tahlilga tortilgan. Qaysi mavzuda yozilishidan qat'i nazar, asarning yutug'ini ta'minlaydigan vosita badiiy uslubdir. Mohiyatan, epik tasvirda badiiy uslubning o'rni beqiyos. Ijodkor badiiy niyatini ifodalash hamda asar kompozitsiyasi va syujetini shakllantirishda uslubning o'rni alohida. Asar qahramonlarining goh jo'shqin, goh hazin tuyg'ularini ham, muallif g'oyaviy maqsadini ham ifoda etishda asosiy vazifani badiiy uslub bajaradi. Ijodiy tafakkurda yangilik hisoblangan asar yaratishga kirishar ekan, adib birinchi navbatda uslubga tayanadi. "Yozuvchi inson taqdiridagi nozik, murakkab holatlarni hamda shu inson sajiyasidagi muhim xislatlarni, uning ma'naviy olamini tasvirlashga harakat qilsa-yu, ammo yangi ifoda vositalarini topishga erisha olmasa, u o'zining g'oyaviy niyatini to'la ifodalay olmaydi"⁹.

"Jaziramadagi odamlar" romanining o'ziga xos uslubda yaratilgani uning mazmuni, g'oyasi yoxud yo'nalishi bilangina emas, shuningdek, asarning tili, qahramonlarining xarakteri, hikoya qilinish yo'li, umuman olganda, har bir o'rinda ko'rinib turadi. Yozuvchi uslubini namoyon qiluvchi "mahalliy kolorit" tushunchasining ushbu romandagi vazifasi ayricha ekanini ta'kidlash kerak. Mahalliy kolorit, avvalo, adib tilga olmoqchi bo'lgan hudud, u tug'ilib o'sgan yurtning o'ziga xos qiyofasidir. Qolaversa, yozuvchi asarida tasvir obyekti qilib olgan joyning tabiati, shart-sharoiti, odamlarining turmush tarzi, ichki olami, dunyoqarashi, o'sha joyga xos udumlar va an'analardir. Yozuvchi ana shunday konkret hayotiy voqelikni badiiy bo'yoqlarda aks ettirish orqali mahalliy koloritni tasvirlashga erishadi. Mahalliy kolorit asarning mazmuni bilan bog'langan bo'lib, qahramonni shakllantirgan, uning ichki mohiyatini ochuvchi sharoitni yaqqolroq

⁹ Донёрова Ш. Шукур Холмирзаев хикояларининг бадий-услубий ўзига хослиги: Фил. фан б. док. дисс. – Тошкент, 2012. – Б. 16.

ko'rsatishga xizmat qiladi. Luqmon Bo'rixon individual uslubining namoyon bo'lishi ana shu xususiyat hosilasidir. Muallif asar qahramonlarini o'quvchiga har doimgi, zerikarli uslubda tanishtirishdan chekinadi, ularning shaxs sifatidagi surati va siyratini, asarda unga yuklangan vazifani ochiqlovchi hangomadan boshlaydi.

Shuningdek, asardagi urf-odat va udumlar tasviri milliy, mahalliy qadriyatlarni ifodalash, tasvirning tabiiyligi va jonliligini ta'minlash bilan birga, o'zbek mentalitetigagina xos bo'lgan fazilatlarni ham ifoda etadi. Masalan, asardagi ayollar portreti chizilgan o'rinlarda ular kiygan kiyimlardan o'zbek qizlariga xos odob-u nomus, hayo-u andishani his etish mumkin. Ayniqsa, romandagi hikoyachi bir personaj tilidan o'sha davrning qizlari jazirama issiq bo'lsa-da, ko'ylak ustidan baxmal nimcha kiyib yurishlari ularning naqadar sharm-hayoli ekani qiyoslash asnosida aytib ketiladi. Bundan tashqari, asarda qo'llanilgan shevaga oid so'zlar obrazning jonliligini orttirish va asar xalqlchilligini ta'minlashda, joy koloritini berishda muhimdir: "O'zbek tilida so'zlashuvchilar tarqalgan hududlarda umummilliy xususiyatlar bilan bir qatorda o'sha hudud kishilarigagina xos bo'lgan jihatlar (urf-odatlar, tasavvurlar, aqidalar, narsa-buyumlar va b.) ham mavjudki, bular birinchi galda sheva tilida o'z aksini topadi. Shundan keyin, asarda tasvirlanayotgan hududga xos bo'yoqlarni berish, unda harakatlanayotgan personaj xarakterini to'laqonli badiiy talqin etish uchun tabiiy ravishda dialektizmlardan foydalanish zarurati yuzaga keladi"¹⁰. Muallif ushbu badiiy vositalar orqali o'ziga xos epik tasvir yaratishga erishadi.

Badiiy asarning muvaffaqiyatli chiqishi, o'quvchilar qalbini zabt etishida undagi voqea-hodisalarning mukammal, asar qahramonini o'rab turgan muhitning jonli tasvirlanishi alohida ahamiyatga ega. "Shoir fabulani tartibga solib va uni so'z bilan ifodalayotganida, iloji boricha, voqealarni ko'z o'ngida jonli tasavvur qilishi kerak: ana shunda shoir go'yo voqealarda o'zi qatnashgandek bo'ladi, barcha tasvirlarni izlab topadi va hech qanday mantiqsizlikka yo'l qo'ymaydi"¹¹. Darhaqiqat, yozuvchi asar voqealarini qanchalar tabiiy, hayotda o'z ko'zi bilan ko'rib turgandek jonli tasvirlasa, asar badiiyati shunchalik yuqori bo'ladi. Shu bilan birga, uslubiy betakrorlikni ham ta'minlashga xizmat qiladi. Epik tasvir jozibadorligini ta'minlovchi ana shunday vositalardan biri peyzajdir. Aksar asarlarda peyzajning vazifasi voqealar sodir bo'layotgan mavsum, makon, atrof-muhit haqida ma'lumot berishdir. Bunda muallif bisotidagi bor ta'rif-u tavsiflar bilan, asosan tabiatning hamma ham ilg'ab ololmaydigan go'zalligini, mo'jizalarini tasvirlaydi. Lekin peyzajning yana bir muhim vazifasi borki, bu yozuvchining badiiy uslubigagina xos xususiyatdir. "Badiiy asarda peyzajning qo'llanishilish yo'llari nihoyatda xilma-xil bo'lib, ular yozuvchi uslubi va asar janri bilan ham belgilanadi. Tabiat manzaralari tasvirida turli xildagi maqsad kuzatiladi. U goh voqea sodir bo'lgan faslni bildiradi, goh qahramonlar kayfiyatini ochishga yordam beradi, goh asar voqealarini bir-biri bilan bog'lash vazifasini o'taydi"¹².

¹⁰ Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – B. 264-265.

¹¹ Арасту. Поэтика. Ахлоқи кабир. Риторика. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2011. – Б. 43.

¹² Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш. Олий ўқув юртлари учун дарслик. – Тошкент: Шарқ, 2008. – Б. 99.

“Jaziramadagi odamlar” romanida peyjaz o‘ziga xos uslubda turli vaziyatlarda foydalanilgan. Jumladan, bosh qahramonlardan biri Samad tilidan asar voqealari yuz beradigan qishloq ta’rifi beriladi: “Qishlog‘imiz uzoq-uzoqdan jazirama hovurida eriy-eriy oqib ketayotgan temir-beton uyumlaridek tuyular, tevarakdagi pacha-parcha paxta paykallari befarosatlarcha tuflab yuborilgan nosvoy laxtalari kabi yoyilib yotar, unda-munda ekinlarga imillay-imillay ishlov berib yurgan texnikalar o‘sha nosvoy dog‘lariga botib qolgan pashshalardek ko‘rinar edi”¹³. Peyjaz tasviri orqali cho‘lda barpo etilgan yangi qishloqning oddiy ta’rifi keltirilishi mumkin edi, aslida. Ammo yozuvchi bu tasvir asnosida mahorat bilan posyolka ko‘rinishini kishilarga xos bo‘lgan ayrim illatlarga qiyoslaydi, ramziylik vositasida dalalardagi holatni kinoyali tasvirlaydi; insonning tabiatga o‘tkazgan tazyiqi uni qanday ko‘rinishga olib kelganiga ishora qiladi.

Adabiy asar uslubiy individualligini ta’minlovchi jihatlardan yana biri voqealarning muayyan syujet asosida tasvirlanishidir. Zero, yozuvchi badiiy niyati, g‘oyasini ifodalashda qahramonlarini ma’lum voqelikka, ijtimoiy munosabatlar qurshoviga, voqealar rivoji to‘lqiniga tashlaydi va o‘zi yaratgan hayot manzarasida ularning taqdirini, xarakterini, his-tuyg‘ularini, ziddiyatlarini ochib beradi. Bu salmoqli vazifa esa syujet asosida amalga oshiriladi. Muallif tasvirlashni maqsad qilgan voqelikni tartib bilan kitobxonga yetkazib berish ham syujetning vazifasidir. Ko‘p o‘rinlarda syujet unsurlaridan mahorat bilan foydalanish asar ta’sir kuchini oshiradi. Luqmon Bo‘rixonning “Jaziramadagi odamlar” romanida syujet unsurlari turli o‘rinlarda kelgan. Badiiy asar muallif qalbidan to‘lib-toshib chiqqan tuyg‘ular, fikrlar mahsuli ekan, uni qat’iy qolipda, qoidalar asosida tasvirlash mushkul va shu jihati bilan ham syujet unsurlarining turlicha qo‘llanilishi normal holatdir.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Badiiy uslubning portret va xarakter yaratishdagi o‘rni**” deb nomlangan bo‘lib, 2.1 paragrafda “*Portret tasvirida badiiy uslubning namoyon bo‘lishi*” masalasi tadqiq qilinadi. Badiiy asarda qahramonlar portreti voqealar rivojini belgilash, asar maqsadini, g‘oyasini harakatlari, gap-so‘zlari, xakteri bilan ochib berish vazifasini bajarishi jihatidan ahamiyatlidir. Qahramon portreti, ya’ni tashqi ko‘rinishi, bu faqatgina uning yuz tuzilishi, jismoniy va kiyinish holatigina bo‘lmay, bu badiiy obrazning ichki dunyosi, xakteri, qolaversa, asardagi o‘rni haqida kitobxonda taassurot hosil qiluvchi vositadir. Adabiyotdagi portretlar o‘quvchilarga personajlarni chuqurroq anglash, ulardagi ramziy ma’nolarni yetkazish, asarning g‘oyaviy maqsadini chuqur anglash kabi turli maqsadlarga xizmat qiladi. “Badiiy portret” tushunchasi ko‘proq tasviriy san’at bilan bog‘liq bo‘lsa-da, adabiyotda personajlarning jonli va mufassal tavsifini berish uchun portret atamasi metaforik tarzda qo‘llaniladi. Adabiyotda badiiy portretlarning ahamiyati hikoyaning chuqurligi va boyligini oshirish qobiliyatidadir. Ijodkor qahramon portretini chizar ekan, o‘quvchiga asar mazmunini, voqealar rivojidagi jarayonlarni tasavvur qilishida, ko‘z o‘ngida qahramonlar holatini gavdalantira olishida ko‘mak beradi.

¹³ Бўрихон Л. Жазирамадаги одамлар. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги НМИУ, 2012. – Б. 70.

Ko'p hollarda portretlar qahramon xarakterini ochib berishga, agar u bosh qahramon bo'lsa, idealligini oshirishga xizmat qilsa, ba'zi o'rinlarda buning aksi kuzatiladi. Shu bois "Yozuvchilar adabiy asarlarda qahramonlar ruhiyatini, xarakterlarini ochishda ularning tashqi qiyofalari, ya'ni portretlarini chizishga jiddiy e'tibor beradilar".¹⁴ "Jaziramadagi odamlar" romanidagi qahramonlar portreti ba'zan uning xarakteriga monand bo'lsa, ayrim o'rinlarda esa buning ziddidir. Yozuvchining qahramon tashqi ko'rinishiga ustalik bilan ramziy ma'no yuklashi esa kitobxonning qiziqishini yanada orttiradi. Adib portret orqali faqatgina qahramon tashqi ko'rinishi haqida tasavvur uyg'otib qolmay, balki obraz xarakterini ochish, dunyoqarashini, ruhiyatini namoyon etish maqsadini qo'yadi. Bunda portretning kinoya va pichingga yo'g'rilgan holda, o'quvchini zeriktirmasdan, quruq bayonchilik usuliga qarshi o'laroq, asarning turli qismlarida qisqa-qisqa, qahramon vaziyatiga, kayfiyatiga mos tarzda berib borilishi yozuvchi badiiy uslubining individualligini namoyon qiladi. Luqmon Bo'rixon portretlari qahramonning suratiga doir quruq ta'rif-u tavsifdan iborat bo'lib qolmay, balki mahoratli yozuvchi asar g'oyasini aks ettirishda portret tasviridan mohirona foydalanadi. O'z fikrlari va munosabatini qahramon portreti vositasida ufodalaydi. Asarning asosiy qahramoni, qishloq ahli tomonidan jonsiz, hissiz sadoqat, sevgi "ma'budasiga" aylantirilgan Lolaxon portreti Samad tilidan tasvirlanadi. Chizgilarning mehr va nafosat bilan, hislarga yo'g'rilgan so'zlar ila tasvirlanishi, kitobxonga, asarning asosiy voqealari shu qahramon atrofida sodir bo'lishi, bu obrazning boshqalaridan alohida ekani, qahramonning ijobiy ekani haqida ishora beribgina qolmay, bu qahramonga nisbatan mehr va hurmat uyg'otadi. "Oppoq, to'lishgan yuzlari, zulukdek qoshlari ostidagi qop-qora ko'zlari, qip-qizil lablari to'la tabassum! Qomatiga yarashiq atlas ko'ylak -lozimi, boshidagi qizg'ish durrachasi uning chinakam shaharcha did-farosatidan darak berib turar edi"... "Men shaharcha bichimdagi atlas ko'ylakli, kalta sochlari ustiga omonatgina qo'ndirilgan qizg'ish durrachali, oppoq yuz, charoz ko'zli bu kelinchakni ilgari ham qayerlardadir uchratgandek bo'lardim"¹⁵. Yana bir ayol qahramon Zumrad opaning eri shaharlik mehmonlarga havas qilib, ularning ortidan ketishga qaror qilgan mahallari o'zidan shaharlik ayolni yasagan vaziyatidagi portreti esa o'zga maqsadga xizmat qilgan: "Ayolning qop-qora, kalta kesilgan sochlari yelkasida sog'lom biyaning yoliday yoyilib yotganmish, havorang, yengsiz, kalta ko'ylak bo'liqqina qomatini sirib, ko'kragi-yu sonlarini bo'rttirib-bo'rttirib turganmish, kalta ko'ylak etagidan ko'zga tashlanib turgan, umrida kun ko'rmagan silliq oyoqlari misoli marmar emish..." (JO, 76). Ikkala portretni o'qiganda, har ikkisida ham shaharlik ko'rinishga ega ayol portreti tasvirlangan bo'lsa-da, birida mehr tafti, ikkinchisida biroz o'ng'aysizroq salbiy bo'yoq ustunligi kuzatiladi. "Portret ma'lum darajada kishining ichki dunyosini in'ikos ettiradi va shu sababli syujet voqealarini tez va to'g'ri tushunishga tayyorlaydi. Bundan tashqari, portret muallifning tasvir etilayotgan kishiga munosabatini ham tayin etadi, ya'ni shu

¹⁴ Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш. Олий ўқув юртлари учун дарслик. – Тошкент: Шарқ, 2008. – Б. 98.

¹⁵ Бўрихон Л. Жазирамадаги одамлар. – Т.: Фафур Ғулом номидаги НМИУ, 2012. – Б. 63-64 (Asardan olingan keyingi iqtiboslar sahifasi JO belgisidan keyin qavs ichida beriladi).

shaxsning syujetda o'ynaydigan roli haqida bizga oldindan darak ham beradi"¹⁶. Ko'rib turganingizdek, ahamiyatsizdek ko'ringan, zumda o'qib o'tilib ketiladigan qahramon portreti o'z zamirida yashirin vazifalarni bajaradi. Asardagi har bir so'z, hatto qo'yilgan nuqta ham bejiz emasligi inobatga olinsa, yozuvchining mehnati, mahorati har o'rinda o'z aksini topishiga amin bo'lamiz.

Aksariyat hollarda portret asar qahramonlarining tashqi qiyofasini yaratuvchi vosita sifatidagina e'tirof etilib kelinadi, ammo bu tasvir faqatgina, "o'quvchi tasavvurida jonlanadigan to'laqonli inson obrazini yaratish va uning xarakterini ochish vositalaridan biri"¹⁷ bo'libgina qolmay, voqealar jarayonida turli xil holatlar, kayfiyat yoxud emotsiyalarni, ziddiyatlarni o'zida namoyon etuvchi obrazlarning ruhiy holatiga ham urg'u beradi. "Badiiy asar syujetida qahramonlarning ma'naviy ichki dunyosini aks ettirish jarayonida ularning portretlarini chizish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Yozuvchilar o'z uslubiy mahoratiga ko'ra qahramon portretini turli shaklda bayon qiladilar"¹⁸. Bu o'rinda yozuvchi qahramonning ruhiy kechinmalarini uning harakatlari va gap-so'zlari orqali tasvirlash bilan chegaralanib qolmay, uning yuzidagi, qiyofasidagi ifodalarni ham qalamga oladi, kitobxonni asar voqealari domiga tortib ketib, yaratgan obrazi taqdiriga xayrixoh, dardiga dardkash, baxtiga sherik qilib qo'yadi, shu boisdan ham kitobxon "Kumush o'lganda Otabekka qo'shilib yig'laydi" yoxud "Zaynabga nisbatan kuchli nafratni his qiladi". Albatta, bu o'z o'rnida yozuvchidan iste'dod va ziyraklikni talab qiluvchi jarayondir.

2.2 paragrafda ***"Personajlar xarakterini yaratishda uslub individualligi"*** muammosi asosida xarakterning o'ziga xos xususiyatlari, asardagi vazifa va maqsadi ochib beriladi. Asarda kitobxonga qahramonlarni yaqindan tanishtiruvchi, ular haqidagi ma'lum xulosa, tasavvurning hosil bo'lishiga sabab bo'luvchi omillardan biri xarakterdir. Umuman, xarakter deyilganda, kishilarga xos xususiyatlar, ularning individualligini ko'rsatib turuvchi jihatlar nazarda tutiladi. Dunyoda bir xil barmoq iziga ega odamlar bo'lmaganidek, bir xil xarakterli kishilar ham mavjud emas, faqatgina o'xshash xarakterli insonlar bo'lishi mumkin. Xarakter asosan munosabatlarda namoyon bo'ladigan holatdir. Adabiyotshunoslik lug'atida esa xarakterga quyidagicha ilmiy ta'rif beriladi: "Xarakter (y. character – iz, belgi, farqlovchi xususiyat) – badiiy xarakter; muayyan davr va muhit kishilariga xos eng muhim umumiy xususiyatlar bilan alohida shaxsga xos individual xususiyatlarni o'zida uyg'un mujassam etgan inson obrazi"¹⁹.

Adabiyotda xarakter yaratish ijodiy sezgi uyg'unligini, psixologik va adabiy tamoyillarni tushunishni o'z ichiga oladi. Arastu yozganidek, xarakter – bu maqsad demakdir. Darhaqiqat, xarakter insonning ichki dunyosi mahsuli, uning maqsadlari yo'lidagi harakatlari o'zligini namoyon qiladigan jarayondir. O'z o'rnida, yozuvchi ham qahramoni yaxshi yoki yomon inson obrazini gavdalantirishiga ko'ra,

¹⁶ Норматов У. Умидбахш тамойиллар. – Тошкент: Маънавият, 2000. – Б. 188.

¹⁷ Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – Б. 226.

¹⁸ Холдоров Д. Ҳозирги ўзбек қиссаларининг бадий услуб муаммоси (Шойим Бўтаев ва Назар Эшонқул қиссалари мисолида). Фил. фан. б. док. дисс. – Т., 2017. – Б. 147.

¹⁹ Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати.– Тошкент: Akademnashr, 2013. – Б. 354.

uning xarakteriga salbiy yoxud ijobiy jihatlardan birini ko'proq singdiradi, asar g'oyasini ifodalashga xizmat qiladigan turli toifadagi personajlarni shu tariqa tasvirlaydi. Personajlar, ularning xarakteri, tashqi ko'rinishi ma'lum bir uyg'unlikda badiiy asarda maqsadli tarzda muayyan funksiyani bajaradi. "Jaziramadagi odamlar" romanida qishloqdagi bir marosimga taklif etilgan beva kampir asarda biror muhim gapni aytib yoki bo'lmasa, ahamiyatga ega bo'lgan bir muhim ishni bajarmasa-da, uning bir zumga asar voqealarida paydo bo'lishi, tashqi ko'rinishining qarimsiq tasviri, romanning asosiy g'oyasini ochib berishga xizmat qiladi. Ya'ni, yosh beva Lolaxon bu kampir timsolida o'z kelajagini ko'rgandek bo'ladi, shunchalar ardoqda, shon-u shuhratda yashayotgan kampirning qalbida baribir kemtik borligi, mehrga, suyanadigan insonga muhtojligi Lolaxonga achchiq haqiqatni oshkor qiladi, u ham qishloqdoshlari, yaqinlari tomonidan qanchalar e'zozlanmasin, qalban yolg'iz, mehrga tashna. Asrlar oshsa-da o'z ahamiyatini yo'qotmagan xarakterning bu jihati, qahramonga yuklatilgan vazifani ado etishda samarali usuldir.

Asarda bola Samad obrazi – muhim personaj. Voqealar Samad tilidan hikoya qilinar ekan, uning xarakteriga, dunyoqarashiga monand beg'ubor, sodda, kulguli tarzda tasvirlanadi. Samadning xarakteri boshqa tengdoshlari To'lqin yoki Durbeknikidan farqli, o'ziga xos bo'lib, yozuvchi Samad yoshidagi bolalar dunyosini chuqur tahlil etgani, bu orqali nainki bolalarni, hatto kattalarni yodga soladigan jihatlarni uyg'unlashtirgani ko'rinadi. Yoki Shabnam bilan Lolaxon ikkalasi ham balog'atga yetgan, sevgan, sevilgan qizlar. Lekin sevgiga munosabati ularning xarakterida turlicha namoyon bo'ladi. Ya'ni xarakterdagi o'ziga xoslik Shabnamni bir tomonga, Lolaxonni boshqa tomonga qo'yib qo'yadi. "Uchinchidan, xarakterlar (hayotiy) haqqoniy bo'lishi kerak: bu yuqorida aytilgandan mutlaq boshqacha bo'lib, ularni yaxshi yoki yarashli qilib tasvirlash kerak degan gap emas"²⁰. Umuman, ijodkor hayotdagi turli xarakterli insonlarning u yoki bu jihatlarni umumlashtirib tasvirlaydi, bu jarayonda obrazning hayotiylikini ta'minlashda, albatta, uni kamchiliklardan, qusurlardan holi tasvirlay olmaydi, yo'qsa hayotda mutloq yaxshi yoki yomon odam bo'lmaganidek, asardagi benuqson qahramon ham o'zining soxtaligini fosh qilib qo'yadi, kitobxon ishonchini qozonolmaydi, shu boisdan ham Arastu xarakter yaratishda bu jihatni ham inobatga olish lozimligini keltirib o'tadi.

Personajlar xarakterini ochib beradigan vositalardan yana biri bu *dialoglardir*. Ikki kishi o'rtasidagi suhbat, ayniqsa bu aniq va oshkora bo'lsa, ularning ichki dunyosini namoyon qilib qo'yuvchi bir ko'zgu misolidir. Romanda rais Chinorning hayot yo'li haqidagi hikoyani aytmaganda, uning xarakteri, dunyoqarashi haqida na muallif tomonidan, na hikoyachi bola Samad tilidan izoh keltirilmaydi. Lekin ikki do'st o'rtasidagi suhbat, kitobxonning "rais"lar haqidagi xulosasini o'zgarishiga sabab bo'ladi. G'alamislar tomonidan chaqirilgan tekshiruvchilar hujumidan muvaffaqiyatli qutulib chiqishsa-da chiroyi yorishmayotgan raisdan buning sababini so'ragan Ergashga Chinor: "Sho'rlab ketayapmiz... cho'l qarshilik ko'rsatyapti... tag'in, uch-to'rt yildan so'ng hosil olish nari tursin, urug' ham unmay qoladi" (JO,

²⁰ Арасту. Поэтика. Ахлоқи кабир. Риторика. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2011. – В. 40.

21), deya bolalarga, keyingi avlodga nima qoldiryapmiz deb qayg'uradi, o'sha davrdagi aksariyat raislar kabi faqat o'zining shon-shuhrati, obro'yi yoki nafsini o'ylab ish qilmaydi, uning tilidan keltirilgan bu dardli fikrlar raisning sofdil, jonkuyar, halol va vijdonli inson ekanligini ko'rsatib turibdi. Bu o'rinda Luqmon Bo'rixon jamiyatdagi ayrim qusurlar, kamchiliklarni to'g'ridan-to'g'ri qalamga olmasdan "teskari" usulda kitobxonga havola qiladi, ya'ni muallif o'zi aytganidek: "narsaning bir tomonini ko'rsatib boshqa tomoniga ishora qiladi". Yozuvchi hamma borgan yo'ldan bormaydi, hech kimni, hech narsani qoralamaydi, oshkora fosh qilmaydi, shunchaki, Chinorning xarakteridagi kelajak avlod, ularning keyingi hayotini, bu avloddan ularga nima meros bo'lib qolayotganini tahlil qilish jihati – uyg'oq vijdon - o'sha davr, jamiyat uchun aktual, zarur ekanligiga ishora qiladi.

Dissertatsiyada qahramon xarakterini ochishda asar tili, personaj tili hamda ijtimoiy sharoit asnosida paydo bo'lgan shaxs xakteri kabi poetik unsurlar ham misollar orqali tadqiq qilingan.

